



Otajanov Umid Abdullayevich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
iqtisodiyot fanlari nomzodi,

ZO'RAVONLIK HOZIRGI KUNDA YUZAGA KELGAN DOLZARB MUAMMO

Annotatsiya. Har qanday jamiyatning asosi oilalardan tashkil topganligi, oila tinchligi jamiyat farovonligining asosini tashkil etishini inobatga olib, hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha zo'ravonliklarning juda ko'p turlari mavjudligi va shulardan eng e'tiborlisi oilalarda sodir bo'ladigan zo'ravonlikni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun maqolada davlat ravnaqiga sabab bo'luvchi eng asosiy omillaridan biri bo'lgan oilalarda zo'ravonlikni yuzaga kelish holatlarining ustuvor ko'rsatkichlarini "smart tahlili" asosida ushbu zanjirning buzilishiga olib keluvchi zo'ravonlik sabablarini aniqlash hamda uni bartaraf etish chora tadbirlari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: zo'ravonlik, farovonlik, jamiyat, tipologiya, ekspert baholash, tahlil, empirik model, prioritet daraja.

Аннотация. Учитывая, что основу любого общества составляют семьи, и учитывая то что семейный мир является основой благополучия общества, потому что сегодня в мире так много видов насилия и наиболее важным из них является снижение уровня насилия в семьях. Исходя из этого в статье описаны мероприятия по выявлению причин домашнего насилия на основе Smart анализа приоритетных показателей приводящие к обрыву цепи и меры по его устранению, что является одним из основных факторов, способствующих развитию государства.

Ключевые слова: насилие, благополучие, общество, типология, экспертная оценка, анализ, эмпирическая модель, уровень приоритета.

Abstract. Considering that families are the basis of any society, and considering that family peace is the basis for the well-being of society, because there are so many types of violence in the world today and the most important of them is to reduce the level of violence in families. Based on this, the article describes measures to identify the causes of domestic violence based on Smart analysis of priority indicators leading to a chain break and measures to eliminate it, which is one of the main factors contributing to the development of the state.

Keywords: violence, well-being, society, typology, peer review, analysis, empirical model, priority level.

Kirish. Hech bir mamlakat yoki jamiyat zo'ravonlikdan holi emas, buni hozirgi axborot asrida ijtimoiy tarmoqlarda har kuni uchrab turgan noxushliklardan anglash mumkin. Ommaviy axborot vositalarida zo'ravonlik tasvirlari va qaydlari deyarli har kuni tarqalmoqda. U ko'chalarda, uylarimizda, maktablarda, ish joylarimizda va hattoki bog'chalarda uchrashi mumkin. Zo'ravonlik, jamiyatlarning farovon turmush tarziga raxna soluvchi, barchaning hayoti, salomatligi hamda baxtiga tahdid soladigan umumbashariy ofatdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har yili dunyo bo'ylab 1,6 milliondan ortiq odam zo'ravonlik

qurboni bo'ladi. Zo'ravonlik natijasida halok bo'lgan har bir kishi uchun yana ko'plab odamlarning jarohat olishi va bir qator jismoniy, jinsiy, reproduktiv hamda ruhiy salomatlik muammolaridan aziyat chekishi kuzatiladi. Zo'ravonlik butun dunyo bo'ylab 15–44 yoshdagi odamlar o'limining asosiy sabablaridan biri bo'lib, erkaklar o'limining taxminan 14 foizini, ayollar o'limining 7 foizini tashkil qiladi¹.

Zo'ravonlik juda keng tarqalganligi sababli, ko'pincha, insoniy holatning muqarrar qismi sifatida

¹ Injury: a leading cause of the global burden of disease. Geneva, World Health Organization, (document WHO/HSC/PVI/99.11).

ko‘riladi va oldini olish uchun kerak bo‘lgan hayot haqiqatidir. Bundan tashqari, bu, odatda, “qonun va tartib” muammosi sifatida qaraladi, sog‘liqni saqlash mutaxassislarining roli oqibatlarga qarshi kurashish bilan chegaralanadi. Ammo bu taxminlar yurak xastaligi, chekish va odamning immunitet tanqisligi virusi yoki orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OIV/OITS) kabi atrof-muhit va xulq-atvor bilan bog‘liq boshqa sog‘liqni saqlash muammolariga xalq salomatligi yondashuvlarining muvaffaqiyat bilan o‘zgarib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bois, hozirgi kunda zo‘ravonlikning oldini olish va uning sabablarini bartaraf etishga e‘tibor kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari, sudlar va kriminologlarning sa‘y-harakatlari, bolalar psixologlaridan tortib epidemiologlarga bo‘lgan va boshqa mutaxassislar, shuningdek fanlarning hissasi bilan to‘ldirilmoqda.

Zo‘ravonlik xarajatlarining katta qismi jabrlanuvchilarning sog‘lig‘iga ta‘siri va sog‘liqni saqlash muassasalariga yuklashi natijasida yuzaga keladi². Ushbu holatni olidini olish, ayniqsa, sog‘liqni saqlash tizimi uchun alohida qiziqish uyg‘otadi hamda muhim rol o‘ynaydi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining bosh jarrohi buni birinchi bo‘lib 1979-yilda “Sog‘lom odamlar”³ nomli hisobotida aniq ta‘riflagan. Hisobotda aytilishicha, zo‘ravonlik oqibatlarini millat salomatligini yaxshilashga intilishda e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi va zo‘ravonlik ildizlariga qarshi kurashish sog‘liqni saqlash hamjamiyatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘shandan beri Amerika Qo‘shma Shtatlarida hamda butun dunyoda sog‘liqni saqlash amaliyotchilari va tadqiqotchilari oldiga zo‘ravonlikni tushunish hamda uning oldini olishning keng ko‘lamli yo‘llarini topish vazifasi qo‘yib kelinmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasining⁴ 1996-yilda Jenevada bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida zo‘ravonlikni butun dunyo

bo‘ylab sog‘liqni saqlashning dolzarb muammosi deb e‘lon qilgan rezolyusiyani qabul qilganda bu masala xalqaro kun tartibiga qo‘yildi.

Zo‘ravonlikning oldini olish mumkinligi to‘g‘risida harakatlarni amalga oshirish, unga bo‘lgan munosabatni shakllantirishning birinchi bosqichidir. Zo‘ravonlik juda nozik masala. Odamlar o‘zlarining professional hayotida bunga qarshi turishda qiynaladilar, chunki bu ularning shaxsiy hayotiga taaluqli noqulay savollar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Zo‘ravonlik haqida gapirish axloq, mafkura va madaniyatning murakkab masalalariga to‘xtash demakdir. Shunday qilib, mavzuni ochiq muhokama qilish uchun ko‘pincha rasmiy va shaxsiy darajada qarshilik mavjud.

Zo‘ravonlik va salomatlik bo‘yicha birinchi Jahon hisobotining maqsadi zo‘ravonlik xulq-atvori atrofidagi maxfiylik, muqarrarlik tuyg‘ulariga qarshi chiqish va ushbu o‘ta murakkab hodisa haqidagi tushunchalarni boyitishga xizmat qiladigan bahs-munozaralarni rag‘batlantirishdan iborat. Befarqlik va qarshilikni yengishda individual tashabbus, yetakchilik bebaho ahamiyatga ega bo‘lsa-da, zo‘ravonlikka har tomonlama qarshi kurashishning asosiy talabi odamlarning barcha turdagi hamda darajadagi hamkorlikda samarali javob choralarini ishlab chiqishlaridir.

Bu, o‘z navbatida, milliy darajadagi sog‘liqni saqlash bo‘yicha qarorlar va siyosatlar uchun mas‘ul bo‘lganlar hamda mahalliy darajada sog‘liqni saqlash sohasida ishlaydigan, jamiyat muammolari va ehtiyojlari bilan eng yaqin aloqada bo‘lganlarga qaratilishi lozim.

Umuman olganda, sog‘liqni saqlash sohasining zo‘ravonlikka munosabati, asosan, reaktiv va terapevtikdir. Bu javob alohida qiziqish va tajriba sohalariga bo‘linganligi sababli kengroq e‘tibor qaratish lozim bo‘lib, zo‘ravonlikning turli shakllari o‘rtasidagi aloqalar ko‘pincha e‘tiborsiz qoladi. Ammo zo‘ravonlik murakkab hodisa bo‘lib, uni yanada kengroq va yaxlit tarzda hal qilish kerak.

Jamoat salomatligi ta‘rifga ko‘ra, alohida bemorlarga emas, balki butun jamoalar va aholi salomatligiga e‘tibor qaratadi. Sog‘liqni saqlash choralari, iloji boricha, kasallik yoki shikastlanish xavfi yuqori bo‘lgan aholiga qaratilgan bo‘lib, sog‘liqni saqlashning asosiy maqsadli sog‘liqni saqlash, mustahkamlash va yaxshilashdir. Bu esa, o‘z navbatida, jamoat salomatligidagi salbiy

² Miller TR, Cohen MA, Rossman SB. Victim costs of violent crime and resulting injuries. *Health Affairs*, 12:186-197

³ Healthy people: The Surgeon General’s report on health promotion and disease prevention. Washington, DC, United States Department of Health, Education, and Welfare, Public Health Service, Office of the Assistant Secretary for Health and Surgeon General, 1979 (publication 79 – 55071).

⁴ World Health Organization, Forty-ninth world health assembly. Geneva, 20-25 may 1996, WHA49/1996/REC/1

oqibatlarni davolashga emas, balki kasallik yoki jarohatlarning paydo bo'lishi yoki takrorlanishining oldini olishga imkon beradi.

An'anaga ko'ra, turmush farovonligiga har qanday tahdid bilan kurashish uchun sog'liqni saqlash yondashuvi quyidagi to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

- muammoning ko'lamini aniqlash va nazorat qilish;
- muammoning sabablarini aniqlash;
- muammoni hal qilish usullarini shakllantirish va sinab ko'rish;
- samara berayotgan chora-tadbirlarni keng qo'llash.

Jamoat salomatligini saqlash yondashuvi ilmiy asoslangan jarayon bo'lib, hamma narsa – muammo va uning sabablarini aniqlashdan tortib, to javoblarni rejalashtirish, sinovdan o'tkazish hamda baholashgacha ishonchli tadqiqotga va eng yaxshi dalillarga asoslanishi kerak. Jamoat salomatligini muhofaza qilish yondashuvi ham ko'p tarmoqli. Sog'liqni saqlash xodimlari keng doiradagi odamlar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydi hamda tibbiyot, epidemiologiya va psixologiyadan sotsiologiya, kriminologiya, ta'lim va iqtisodiyotgacha bo'lgan keng ko'lamli professional tajribadan foydalanadi.

Zo'ravonlikka kelsak, sog'liqni saqlash amaliyotchilari va ularning hamkorlari zo'ravonlik xatti-harakatlari hamda uning oqibatlarini oldini olish mumkinligi bo'yicha dalillarga asoslangan qat'iy ishonch bilan boshlaydilar. Jamoat salomatligiga yondashuv jinoiy odil sudlovni va zo'ravonlikka inson huquqlari javoblarini almashtirmaydi; balki ularning faoliyatini to'ldiradi va ularga hamkorlikning qo'shimcha vositalari va manbalarini taklif etadi.


Zo'ravonlik sog'liqni saqlash tizimi muammosi sifatida e'tiborga olinmaganining sabablaridan biri – bu muammoning aniq ta'rifi yo'qligi. Zo'ravonlik o'ta tarqoq va murakkab hodisadir. Uni ta'riflash aniq fan emas, balki hukm qilish masalasidir. Xulq-atvor nuqtayi nazaridan qabul qilinadigan va qabul qilinishi mumkin bo'lmagan narsalar hamda zararni tashkil etuvchi tushunchalar madaniy ta'sirga ega qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlar rivojlanishi bilan doimiy ravishda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Butun dunyo bo'ylab turli xil axloqiy me'yorlar zo'ravonlik mavzusini global forumda muhokama qilinadigan eng qiyin va nozik mavzulardan biriga aylantiradi. Ammo buni qilish zarurati shoshilinch bo'lib, tez o'zgaruvchan dunyoda inson hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish maqsadida uning huquqlarini ishlab chiqish orqali konsensusga erishish hamda xulq-atvorning universal standartlarini belgilashga harakat qilish lozim.

Zo'ravonlikni kim va qanday maqsadda qilayotganiga qarab, uni aniqlashning ko'plab ehtimoliy usullari mavjud. Masalan, hibsga olish va sudlov ta'rifi ijtimoiy xizmat aralashuvidan farq qiladi. Jamoat salomatligiga kelsak, muammo zo'ravonlikni shunday ta'riflashdan iboratki, u jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar doirasini va jabrlanuvchilarning subyektiv kechinmalarini qamrab oladigan darajada ma'nosini yo'qotib qo'yadigan patologiya nuqtayi nazaridan kundalik hayotning tabiiy o'zgarishlaridir. Umuman olganda, zo'ravonlik o'ziga, boshqa shaxsga yoki jamoaga qarshi tahdid ostida yoki amalda jismoniy kuch yoki kuchni qasddan qo'llash orqali jarohat, ruhiy zarar, rivojlanishning buzilishi yoki mahrum bo'lishiga, hattoki o'limga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatdir.

Zo'ravonlik harakatlarining murakkabligi, keng tarqalganligi va xilma-xilligi kuchsizlik va befarqlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Ushbu murakkab gobenning iplarini ajratish uchun analitik asos yoki tipologiya kerak, shunda muammoning mohiyati va uni hal qilish uchun zarur bo'lgan harakatlar aniqroq yuzaga chiqadi. Hozirgacha zo'ravonlikka qarshi ish tadqiqot va harakatning maxsus sohalariga bo'lingan. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun tahliliy asosda zo'ravonlikning har xil turlari o'rtasidagi umumiy xususiyatlar va aloqalarni ta'kidlash kerak, bu esa zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan yaxlit yondashuvga olib keladi. Bunday tipologiyalar kam va ularning hech biri keng qamrovli yoki umume'tirof etilgan emas [6].

Zo'ravonlik va salomatlik bo'yicha Jahon hisobotida qo'llaniladigan tipologiya zo'ravonlik harakatini kim sodir etganiga qarab uchta keng toifaga ajratadi: o'z-o'ziga zo'ravonlik, shaxslararo zo'ravonlik va jamoaviy zo'ravonlik. Ushbu



1-rasm. Zo'rovonlik tipologiyasi

dastlabki toifalash shaxsning o'ziga nisbatan qo'llaydigan zo'ravonligi, boshqa shaxs yoki kichik bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilgan zo'ravonlik, davlatlar, uyushgan siyosiy guruhlar, ichki ishlar organlari guruhlar hamda terroristik tashkilotlar kabi katta guruhlar tomonidan amalga oshirilgan zo'ravonliklarni farqlaydi va ushbu uchta keng toifaning har biri zo'ravonlikning aniqroq turlarini aks ettirish uchun alohida bo'linadi (1-rasm).

O'z-o'ziga bo'lgan zo'ravonlik o'z joniga suiqasd qilish xatti-harakati va o'z-o'zini suiste'mol qilishni o'z ichiga oladi. O'z joniga qasd qilish xulq-atvori shunchaki o'z hayotini tugatish haqida o'ylashdan, uni rejalashtirish, buning uchun vositalarni topish, o'z joniga qasd qilishga urinish va harakatni yakunlashgacha bo'lgan darajada kuzatiladi. Biroq bular bir kontinuumning turli nuqtalari sifatida qaralmasligi kerak. O'z joniga qasd qilish fikriga ega bo'lgan ko'p odamlar hech qachon ularga harakat qilmaydi va hatto o'z joniga qasd qilishga uringanlar ham o'lishni niyat qilmasliklari mumkin.

Shaxslararo zo'ravonlik ikki kichik toifaga bo'linadi:

Oilaviy zo'ravonlik – yaqin hamkorlar, ya'ni oila a'zolari va yaqin sheriklar o'rtasidagi zo'ravonlik, odatda, uyda sodir bo'ladi.

Jamoaviy zo'ravonlik – bir-biriga aloqador bo'lmagan va bir-birini taniydigan yoki tanimaydigan

shaxslar o'rtasidagi zo'ravonlik, odatda, uydan tashqarida sodir bo'ladi.

Ikkinchisiga yoshlar zo'ravonligi, ya'ni tasodifiy zo'ravonlik harakatlari, begonalar tomonidan ma'naviy tahqirlash yoki jinsiy tajovuz, maktablar, ish joylari, harbiy xizmat qismlari va shu kabi muassasalardagi zo'ravonlik kiradi. Jamoaviy zo'ravonlik – siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishish maqsadida o'zini boshqa guruh yoki shaxslar to'plamiga taaluqli guruh a'zosi deb bilgan odamlar orqali zo'ravonlik uyushtirish. U turli shakllarda bo'ladi: davlatlar ichida yoki davlatlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlar, genotsid, repressiya va boshqa inson huquqlarini buzish, terrorizm hamda uyushgan zo'ravonlik jinoyati.

Tipologiyasi bo'yicha jismoniy, jinsiy yoki psixologik bo'lishi mumkin bo'lgan, mahrumlik yoki e'tiborsizlik bilan bog'liq zo'ravonlik harakatlarining tabiatini ham qamrab oladi. Tipologiya, shuningdek, vaziyatning dolzarbligini, jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni va (jamoaviy zo'ravonlik holatida) zo'ravonlikning mumkin bo'lgan sabablarini ko'rib chiqadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi harakatlar muayyan sog'liqni saqlash muammosining ko'lamini baholashni talab qiladi. Bunday bilimlar to'g'ri siyosat yuritish uchun asos sifatida juda muhimdir. Zo'ravonlik haqidagi ishonchli ma'lumotlar nafaqat rejalashtirish va monitoring qilish, balki advokatlik uchun ham dolzarb. Ma'lumot bo'lmasa, muammoni

tan olish yoki unga javob berish uchun hech kimga bosim o'tkazilmaydi.

Zo'ravonlikni erta aniqlash ko'plab muammolarga yechim bo'la oladi. Mamlakatlar o'z ma'lumotlar tizimini rivojlantirishning turli bosqichlarida mavjud ma'lumotlarning to'liqligi, sifati, ishonchliligi va foydaliligi bilan katta farqlar mavjudligini namoyon etadi. Ko'pgina zo'ravonlik harakatlari hech qachon qayd etilmaydi, chunki ular hokimiyat e'tiboriga tushmaydi. Boshqalari esa rasmiylarning e'tiboriga tushadi, lekin qaydlar muammoni tushunish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni qamrab olmaydi. Zo'ravonlik shaklini aniqlash usuli qanday ma'lumotlar to'planishiga ta'sir qilganligi sababli, ko'p joylarda noto'g'ri ta'riflar muammoning muhim jihatlarini yashirishga xizmat qiladi. Nihoyat, ta'riflar va ma'lumotlarni to'plashda izchillik yo'qligi ma'lumotlarni jamoalar yoki davlatlar bo'ylab solishtirishni qiyinlashtiradi.

Zo'ravonlikni baholashda kerakli ma'lumotlarni to'ldirishga yordam beradigan bir qator ma'lumotlar zarur. Jumladan:

- kasalliklar, jarohatlar va sog'liq bilan bog'liq boshqa holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- munosabatlar, e'tiqodlar, xatti-harakatlar, madaniy amaliyotlar, qurbonlik va zo'ravonlikka duchor bo'lish to'g'risidagi ma'lumotlar;

- aholi xususiyatlari va daromadlari, ta'lim va bandlik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- zo'ravonlik hodisalari va uni sodir etgan jinoyatchilarning xususiyatlari va sharoitlari to'g'risidagi jinoyat ma'lumotlari;

- davolash, ijtimoiy xizmatlar va profilaktik tadbirlar xarajatlari bilan bog'liq iqtisodiy ma'lumotlar;

- siyosat va qonunchilik ma'lumotlari. Bu ma'lumotlar turli manbalardan jumladan, shaxslar, agentlik yoki institutsional yozuvlar, mahalliy dasturlar, jamoat va hukumat qaydlari, aholi hamda boshqa so'rovlar, shuningdek, maxsus tadqiqotlardan olinishi mumkin. Ushbu manbalarning barchasi muammoni tushunishda foydali bo'ladi va ko'p tarmoqli hamkorlik nima uchun sog'liqni saqlash yondashuvining asosiy elementlari ekanligini ko'rsatib beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, jismoniy, jinsiy va psixologik zo'ravonlik har kuni har bir mamlakatda

sodir bo'lib, millionlab odamlarning farovonligi va salomatligiga putur yetkazadi. Bundan tashqari, har yili sog'liqni saqlash tizimi sud xarajatlari, ishdan bo'shatish va ish samaradorligini oshirish uchun katta mablag'larni sarflaydi. Bundan tashqari, zo'ravonlikning sog'liqqa ta'siri dastlabki zo'ravonlikdan keyin ham yillab davom etishi va orqa miya shikastlanishi, oyoq-qo'llarning ishlamay qolishi kabi doimiy nogironlikni o'z ichiga olishi ham mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarda to'g'ridan-to'g'ri jismoniy shikastlanishdan tashqari, zo'ravonlik qurbonlari ruhiy tushkunlik, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, tashvish va o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlari, shuningdek, reproduktiv salomatlik muammolari, jumladan, istalmagan homiladorlik hamda boshqalar kabi psixologik va xulq-atvorning keng doiradagi muammolari xavfi yuqoriligi aniqlandi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, zo'ravonlik harakati va uning ta'siri o'rtasida, ayniqsa, psixologik zo'ravonlik haqida gap ketganda kamdan kam hollarda oddiy sabab-natija aloqasi mavjud. Hatto ekstremal holatlarda ham turli xil reaksiyalar va ta'sirlarni keltirish mumkin, chunki odamlar qiyinchiliklarga individual tarzda javob berishadi. Shaxsning yoshi va temperamenti, uning hissiy qo'llab-quvvatlanishi yoki yo'qligi zo'ravonlik voqealarining natijasiga ta'sir qiladi. Zo'ravonlikka qarshi faol bo'lgan odamlar passiv bo'lganlarga qaraganda chidamliroq bo'ladi. Davolash va profilaktika dasturlari uchun mustahkam asos yaratish maqsadida zo'ravonlikning salomatlik oqibatlari va vositachilik omillari bo'yicha batafsilroq tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Buning uchun, fikrimizcha, zo'ravonlikning kelib chiqish mohiyatiga ko'ra, umumiy ma'noda iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik holatlarga ajratib o'rganish ma'qul. Chunki zo'ravonlikning kelib chiqishi oxir-oqibat quyidagicha vujudga keladi va bu, o'z navbatida, uning kelib chiqish sabalari va yo'nalishlari bo'yicha mas'uliyatni belgilash hamda oldini olish imkoniyatini beradi. Iqtisodiy holat:

- “er – donor” funksiyasini o'z zimmasiga olishi va ayolning o'zini namoyon qilish qobiliyatini cheklashi;

- iqtisodiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish. Er xotiniga “pulga tegishi”ga ruxsat bermasa,

xususan, kredit va debet bank kartalari, chek kitoblari, hatto ulardagi pul ayolga tegishli bo'lsa ham, ulardan erkin foydalanish huquqini rad etadi, o'z mulkini tasarruf etishni taqiqlaydi

- **Ayollarning ta'lim olishi va ish bilan ta'minlanishidagi to'siqlar.** U turli shakllarda bo'lishi mumkin – to'g'ridan to'g'ri taqiqlashdan tortib, tegishli psixologik sharoitlarni yaratishgacha.

- **Ayolning puli yoki xarajatlari va mulki ustidan nazorat o'rnatish.** Bu tegishli hisobot orqali ayolning aniq nimaga pul sarflaganini isbotlash so'rovi orqali o'zini namoyon qiladi.

- **Iqtisodiy aktivlarni sotib olishga to'sinlik qilish.** Er barcha qimmatbaho xaridlarni, ya'ni kvartira yoki mashinani o'z nomidan amalga oshirishga harakat qilganda namoyon bo'ladi.

- **O'z resurslaridan foydalanishni cheklash.** Bu “birinchi navbatda siznikini, keyin esa har birimiznikini sarflaymiz” tamoyili asosida xarajatlarni taqsimlash, resurslarni bosim orqali olib qo'yish, egasining xabarisiz o'g'irlik yoki sotish.

- **Iqtisodiy xarajatlarni keltirib chiqarish.** Bu keraksiz xaridlarga majburlash yoki ayolning mol-mulki va narsalariga zarar yetkazish yoki yo'q qilish orqali sodir bo'lishi mumkin.

- Iqtisodiy zo'ravonlik – bolani boqish uchun aliment pulini to'lashdan bosh tortishda, ayol aliment undirish uchun rasman murojaat qilganda real ish haqini yashirishda namoyon bo'ladi.

- **Oilada moliyaviy yetishmovchilikning vujudga kelishi.** Bunda ayolning erkak kishiga yetishmovchilik haqida eslatishi orqali nizolar kelib chiqadi.

Zo'ravonlikning ijtimoiy tahlilida ikkita xususiyat belgilandi:

1. Shoshilinch ijtimoiy tashvish obyekti bo'lgan zo'ravonlikning turli shakllari.

2. Zo'ravonlikning ijtimoiy jihatdan deviant va zo'ravonlik shakllariga katta e'tibor qaratish.

- **Ayolning erkak kishidan ko'proq maosh olishi.** Bu oilada gender munosabatining yuzaga kelishi va turli konfliktlarning paydo bo'lishida namoyon bo'ladi.

- Atrofda yuz berayotgan va ijtimoiy tarmoqlardagi tajovuzkorlik va zo'ravonlik namoyishlarini cheklash kerak. Chunki, ko'plab tajovuzkorlik, har kuni atrofimizdagi zo'ravonlikni

modellashtirish orqali o'rganiladi va amaliyotda qo'llaniladi.

- Ommaviy axborot vositalari hamda turli ijtimoiy tarmoqlarda tajovuzkor va zo'ravonlik ko'rsatuvlarini cheklash. Televideniyaedagi zo'ravonlikni tomosha qilish tajovuzni kuchaytirishi aniq, ammo video o'yinlaridagi zo'ravonlik haqida nima deyish mumkin? Ushbu o'yinlar har qachongidan ham ommabop va grafik jihatdan beshafqatroq. Ba'zi bolalar son-sanoqsiz vaqtini video o'yinlariga sarflaydi, ularning aksariyati o'ta zo'ravon xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy guruhlar bir qator funksional rekvizitlarga ega bo'lib, ularning yashashi uchun muayyan ehtiyojlar qondirilishi kerak. Yillar davomida funksional rekvizitlarning turli ro'yxatlari paydo bo'ldi. Quyidagi misollar yondashuvni tushuntirish uchun xizmat qiladi:

- **Ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar.** Jamiyatdagi o'zgarishlarga ko'maklashish va adolatsizlikni bartaraf etish maqsadida saylovlar, sudlar va vositachilik kabi turli mexanizmlar yaratiladi. Ammo bunday mexanizmlar o'z cheklovlariga ega. Masalan, sudlar shikoyatni adolatli ko'rib chiqishni kafolatlash uchun ta'lim yoki pulga ehtiyoj sezadi. Zo'ravonlik, ko'pincha, noqulay vaziyatdan chiqishning zo'ravonliksiz yo'lni ko'rmaydigan shaxslar va guruhlar uchun yagona alternativa sifatida tushuniladi.

- **Ijtimoiy barqarorlik.** Ijtimoiy o'zgarishlar maqsadiga xizmat qiladigan ko'plab mexanizmlar kuchli elita tomonidan asta-sekin sodir bo'lishini va ularning imtiyozlariga tahdid solmasligini ta'minlash maqsadida yaratiladi. Uotergeyt voqeasi va Rodni Kingning ommaviy ravishda kaltaklanishi ana shunday qarashlarni yuzaga keltirdi. Odamlar rasmiy huquqbuzarlik sodir bo'lganiga shubha qilmadilar, lekin ular jamiyatdagi ichki buzilish yoki tashqi hujumdan himoya qilish uchun bunday taktikani zarur deb bilishdi.

- **Ijtimoiylashtirish.** Bolalarga o'z ijtimoiy guruhining umidlarini o'rgatish va guruhda o'z o'rnini egallash uchun ko'nikma va tushunchalarni egallashga yordam berish kerak. Zo'ravonlik bolalar shaxslararo munosabatlarni hamda o'z hayotini boshqarish va iqtisodiy jihatdan o'zini o'zi ta'minlash uchun zarur ko'nikmalarga ega

bo'lmagan taqdirda yuzaga kelishi mumkin. Samarali sotsializatsiya ko'nikmalariga o'rgatish kattalarning qatnashishini ham talab qiladi.

Mojarolarni boshqarish. Nazariyotchilar konflikt jamiyatdagi ijobiy kuch ekanligini va inson guruhlar konfliktlarni samarali tarzda hal qilishlari kerakligini ta'kidlaydilar. Masalan, katta yoki ko'p avlodli oilada intimlar o'rtasidagi har qanday nizoga unchalik faol ishtirok etmagan boshqalar vositachilik qilishi mumkin. Mahallalar, shuningdek, oila yoki boshqa nizolarni hal qilishda yordam berishi mumkin bo'lgan manfaatdor odamlarga kirishni taklif qiladi. Boshqa manfaatdorning qo'llab-quvvatlashiga ega bo'lmagan holda nizolar yechimiga erishish uchun zo'ravonlik ishlatilishi mumkin.

Boshqaruv. Ijtimoiy nazorat yana bir muhim funksiya bo'lib, jamiyatga uning a'zolari bir-biriga zarar yetkazmasligini ta'minlash maqsadida kerak. Zo'ravonlik bu nuqtayi nazardan nazorat qilish jarayonida muvaffaqiyatsizliklarni ko'rsatadi. Tadqiqotlar etnik xilma-xillik, past ijtimoiy-iqtisodiy maqom, turarjoylarning harakatchanligi va huquqbuzarlik o'rtasida yuqori korrelyatsiya mavjudligini aniqladi. Norasmiy ijtimoiy nazoratning barqaror, yaxlit tarmoqlariga ega bo'lmagan mahallalarda yoshlar to'dalari va zo'ravonlik bilan ko'proq muammolarga duch kelinishi mumkin. Rasmiy ijtimoiy nazorat ham zo'ravonlik bilan bog'liq. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari giyohvand moddalar savdosi va yuqori jinoyatlar bilan tavsiflangan "ekologik bo'shliqlar"ga zid ekanligini ta'kidlash mumkin.

Funksionalistik hissalar. Funksional tahlil zamonaviy zo'ravonlikni tushuntirishga yordam beradigan ko'plab omillarni aniqlaydi. Ko'pchilik zo'ravonlikni jamiyatning turli mexanizmlari ijtimoiy ehtiyojlarga javob bermasa, yuzaga keladigan zarurat, deb biladi. Yuqori stress darajasi, tez texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyat zo'ravonlikka hissa qo'shadigan omildir. Zo'ravonlik haqidagi bu tushunchalar to'g'ridan-to'g'ri harakatga olib keladigan afzalliklarga ega; jamiyat nima buzilganligini bilsa, uni tuzatishga urinishlarni tashkil qilishi mumkin. Boshqa tomondan, funksional

yondashuv o'zgarishlarning ko'plab mumkin bo'lgan sohalarini ko'rsatishi mumkinki, natijada muammolar va taklif qilingan yechimlarning "qator ro'yxati" shakllanadi. Nazariya ustuvorliklarni belgilash yoki aralashuvlarni muvofiqlashtirishni tushuntirmaydi.

Psixologik salomatlik, ruhiy kasalliklar va zo'ravonlik o'rtasidagi munosabatlar haqidagi noto'g'ri tushunchalar kamsitish va ijtimoiy chetlanishga sezilarli hissa qo'shadi. Psixologik holatlar:


Ruhiy kasalliklari bo'lgan odamlarning zo'ravonlik xatti-harakatlarini baholash juda murakkab va zo'ravonlik hamda ruhiy kasalliklar o'rtasida aniq sabab-oqibat aloqasi o'rnatilmagan. Mavjud ma'lumotlarning ishonchliligi, izchilligi va umumlashtirilishi bilan bog'liq ta'riflar, ma'lumotlardagi bo'shliqlar va texnik muammolar tufayli qiyinchiliklar mavjud.

Ruhiy sog'lig'i yomon bo'lgan odamlar kamsitish va ijtimoiy chetlanishni boshdan kechirishadi, shu jumladan, zo'ravonlik qilishdan qo'rqish kabilar ularning hayotiga sezilarli ta'sir qiladi.

Og'ir ruhiy kasalliklari bo'lgan odamlar oddiy aholiga qaraganda ko'proq zo'ravonlik qurboni bo'lishadi.

Zo'ravonlik va kamsitishdan holilik ijobiy ruhiy salomatlik va farovonlikka yordam beradi. Ommaviy axborot vositalaridagi xabarlar va tasvirlar zo'ravonlik va ruhiy kasalliklari bo'lgan odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqida jamoatchilikning noto'g'ri tasavvurlarini keltirib chiqaradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda shaxslarning o'z joniga qasd qilish harakatining ijtimoiy-psixologik determinantlarining empirik modelini tavsiya qilamiz (2-rasm).



2-rasm. Shaxslarda o'z joniga qasd qilish harakatining ijtimoiy-psixologik determinantlari empirik modeli

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Injury: a leading cause of the global burden of disease. – Geneva, World Health Organization, (document WHO/HSC/PVI/99.11)
2. Dervic, K. Religious Affiliation and Suicide Attempt / K. Dervic [et al] // American Journal of Psychiatry. – 2004. – №161 (12). – P. 2303—2308.
3. Dube, S. Childhood abuse, household dysfunction and the risk of attempted suicide throughout the life span / S. Dube // Jama. – 2001. – Vol. 286. – № 24. – P. 3089-3096.
4. Coletta, A. Suicide: the constructive/ destructive self / A. Coletta. – New York: Lewiston, 1996. – 295 p.
5. Miller TR, Cohen MA, Rossman SB. Victim costs of violent crime and resulting injuries. Health Affairs, 12:186 – 197
6. Healthy people: the Surgeon General's report on health promotion and disease prevention. Washington, DC, United States Department of Health, Education, and Welfare, Public Health Service, Office of the Assistant Secretary for Health and Surgeon General, 1979 (publication 79 – 55071)
7. World Health Organization, Forty-ninth world health assembly // – Geneva, 20-25 may 1996, WHA49/1996/ REC/1
8. Coletta, A. Suicide: the constructive/ destructive self / A. Coletta. – New York: Lewiston, 1996. – 295 p.
9. Dervic, K. Religious Affiliation and Suicide Attempt / K. Dervic [et al] // American Journal of Psychiatry. – 2004. – №161 (12). – P. 2303—2308.
10. Dube, S. Childhood abuse, household dysfunction and the risk of attempted suicide throughout the life span / S. Dube // Jama. – 2001. – Vol. 286. – № 24. – P. 3089-3096.
11. Амбрумова А.Г. Психология самоубийства / А.Г. Амбрумова // Социальная и клиническая психиатрия. 1996. – Т.6. – Вып.4. – С. 14-20.
12. Амбрумова А.Г., Полеев А.М. Неотложная психотерапевтическая помощь в суицидологической практике / А. Г. Амбрумова, А.М.Полеев // Методические рекомендации – Москва: Изд-во МЗ РСФСР, 1986. – 25 с.
13. Амбрумова А.Г., Постовалова Л.И. Семейная диагностика и профилактика суицидального поведения. // В сб.: Проблемы профилактики и реабилитации в суицидологии. – Москва, 1984. – С. 62-77.
14. Бек А. Методы работы с суицидальным пациентом [Электронный ресурс] / А. Бек // Журнал практической психологии и психоанализа. – 2003. – № 1
15. Ефремов В.С. Основы суицидологии / В. С. Ефремов. – Санкт-Петербург: Диалект, 2004. – 480 с
16. Исаев Д.С. Психология суицидального поведения / Д.С. Исаев, К.В. Шерстнёв. – Самара: СГУ, 2000. – 236 с
17. Леонтьев Д.А. Тест жизнестойкости / Д.А. Леонтьев, Е.И. Рассказова // Методическое руководство по новой методике психологической диагностики личности с широкой областью применения. – Москва: Смысл, 2006. – 63 с
18. Сагалакова О.А Жизнестойкость и динамика суицидального поведения молодежи / О.А. Сагалакова, Д.В. Труевцев // Вестник психологии и педагогики Алтайского государственного университета. – 2017. – №1. – С. 49-56
19. Сорокин П.А. Самоубийство как общественное явление / П.А. Сорокин // Социс. 2003. – № 2. – С. 104-114.
20. Холмогорова А.Б. Суицидальное поведение: теоретическая модель и практика помощи в когнитивно-бихевиоральной терапии / А.Б. Холмогорова // Консультативная психология и психотерапия. 2016. – Т. 24. – № 3. – С. 144-163.
21. Шакурова З.А. О смысловых составляющих понятия «жизнестойкость» / З.А. Шакурова, Т.В. Наливайко, Е.И. Наливайко // Теоретическая, экспериментальная и прикладная психология: Сб. науч. тр. / Под ред. Н.А. Батурина. – Челябинск: Челябинский юридический государственный университет, 2003. – С. 160-164.